BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA "EASY DESIGN" (SODDA LOYIHA) INTERFAOL METODI.

Sodiqova Aziza Hayitovna,
Zarmed Universiteti,
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti (PhD)
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dots.
azizasodiqova@296gmail.com

Annotasiya

Mazkur maqolada Oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli katta. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarni bilimli bo'lishlarini ta'minlaydi. Har bir dars mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. Ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya, bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u talaba ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir. O'quvchi va talaba maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari o'z ixtiyorida. Chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi bilim saviyasi auditoriya xarakteri sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiyalari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan, xulosalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: *Pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, interfaol metodlar, "Easy design" (sodda loyiha) metodi, texnologiya, loyiha metodlari.*

Abstract

In this article, the place and role of modern teaching methods - interactive methods, innovative technologies in the training of future pedagogic personnel in the higher education system is great. Knowledge, experience and interactive methods of pedagogical technology and pedagogical skills ensure that students are educated. Each lesson topic, educational subject has its own technology. That is, pedagogical technology in the educational process is an individual process, it is a pedagogical process aimed at providing a goal, designed and guaranteed result based on the needs of the student. It is up to the pupil and student to choose what technology to achieve the goal. Because the main goal of both sides is clear: it is aimed at achieving the result, in which suggestions and recommendations on the technologies used depending on the conditions of the student's knowledge level and the character of the audience are developed, conclusions are presented.

Key words: *Pedagogical technology, pedagogical skills, interactive methods, "Light design" method, technology, design methods.*

Абстрактниый:

В данной статье велика роль и место современных методов обучения - интерактивных методов, инновационных технологий в подготовке будущих педагогических кадров в системе высшего образования. Знания, опыт и интерактивные методы педагогических технологий и педагогического мастерства обеспечивают образованность учащихся. Каждая тема урока, учебный предмет имеет свою технологию. То есть педагогическая технология в образовательном процессе – это индивидуальный процесс, это педагогический процесс, направленный на обеспечение целевого, проектируемого и гарантированного результата, исходя из потребностей обучающегося. Ученик и студент должны выбрать, какую технологию для достижения цели. Потому что основная цель обеих сторон понятна: она направлена на достижение результата, в котором разрабатываются

предложения и рекомендации по используемым технологиям в зависимости от условий уровня знаний студента и характера аудитории, представляются выводы.

Ключевые слова: *Педагогическая технология, педагогическое мастерство, интерактивные методы, метод «Легкого проектирования», технология, проектные методы.*

Kirish. Xalqaro tajribalarga ko‘ra, oliy ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalash hamda nazariy va amaliy kasbiy ta’limni uyg‘unlashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni taqozo etadi. Bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramasdan, bozor munosabatlari qaror topayotgan bir sharoitda mehnat bozorida yuzaga keluvchi hayotiy raqobatga bardosh bera oladigan ixtisoslik fanlarini puxta o‘zlashtirgan, muayyan vaziyatlarni to‘g‘ri baholay oluvchi, jamiyatning turli tarmoqlarida mehnat faoliyatini amalga oshira oladigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ularda zarur va yetarli darajadagi kasbiy tayyorgarlikni fanlar integratsiyasini ta’minlash vositasida shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda. Qayd etilgan muammolar va vazifalar tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bugungi kunda oliy ta’lim oldida, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni modernizatsiyalashning muhim vazifalaridan biri sifatida ta’lim tizimini isloh qilish, modernizatsiyalash va bo‘lajak o’qituvchilarni innovatsion va kompetension yondashuv asosida tarbiyalash, xorijiy tajribalarni va sohaning so‘nggi yutuqlarini o‘rganish, qo‘llash va takomillashtirishga hissa qo‘shish kabi dolzarb va keng qamrovli muammolar yechimi turibdi.

Innovatsion ta’lim tizimining eng muhim jihatlaridan biri uning bosqichlari dars jarayonlarini innovatsion, tushunarli va soda metod va texnologiyalardan foydalanib darsjarayonini tashkil etishdan iboratdir. Shuning uchun ham ta’limning turli bosqichlarida innovatsion texnologiyalar, uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash

metodikasini ishlab chiqish masalasi har doim ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan hisoblangan.

N.N.Karimova esa "Kasb ta'limi o'qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirish" mavzusidagi dissertatsiya ishida quyidagi vazifalarning yechimlarini topish zarur deb belgilaydi. "Tikuvchilik buyumlarini buyuptma asosida konctpuksiyalash bo'yichamaxsus amaliyot" fanidan talabalarning amaliy kompetentligini baholash ko'rsatkishlari, indikatoplari va mezonlarini ishlab chiqish.

Kasb ta'limi o'qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirish metodikasi bo'yichauslubiy qo'llanma hamda zamonaviy o'quv - uslubiy majmua tayyorlash, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va olingan natijalarni tahlil qilish.

O.A.Vasileva "Oliy ta'limda bo'lajak kasb-hunaro'qituvchilarini dizayn va texnologik faoliyatga tayyorlash" deb tarjima qilinadigan ilmiy tadqiqot ishida, bo'lajak kasb-hunar o'qituvchilarini dizayn va texnologik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. Dizayn madaniyatini rivojlantirish, oliy ta'limning kasbiy-pedagogik ta'lim kontekstida loyihalash va texnologiya faoliyatini tashkil etish maqsadida innovasion texnologiyalar ishlab chiqilgan. Kasbiy kompetensiyalar asosida innovasion o'qitish usullaridan foydalanib talabalarning kasbiy-pedagogik tajribalarini shakllantirish metodlari ishlab chiqilgan.

Biz yuqorida keltirilgan tadqiqot ishlarini tizimli tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, Rossiya davlati tadqiqotchilari M.A.Fedulova, E.A.Kuzina, Yu.M.Budina, O.A.Vasilevalar tomonidan, bo'lajak kasb-hunar ta'limi (loyiha) o'qituvchilarining dizaynerlik sohasidagi kasbiy, maxsus, dizayn kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shartlari va imkoniyatlari o'rganilgan, metodikasi ishlab chiqilgan va yurtimiz tadqiqotchilari Q.M.Abdullaeva, N.N.Karimova, C.Rajabovalar tomonidan ham tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining amaliy

va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodlari ishlab chiqilgan bo’lsada, aynan tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonida bo‘lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi oson va qulay metodlar orqali tushuntirilmaganlini ko’rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz tadqiqotimizda taklif qilayotgan metot esa, bo’lajak o’qituvchilarni loyihalashga oid maxsus kompetensiyasini soda va samarali usulda tushuntiradi. “Easy design” (sodda loyiha) metodi – bu metod asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablari va oliy ta’lim “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi fanlari uchun qo‘l keladi. Bu metod faqat “Gazlama materiallariga ishlov berish va buyum tayyorlash texnologiyalari” va “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” (tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayoni) uchun mos keladi. Ma’lumki, tikuvchilik buyumlarini loyihalashdagi murakkab va davomli formulali hisob- kitoblar jarayoni umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchisi uchun murakkablik qiladi va ular uchun bu fan juda qiyin va zerikarli tuyuladi. Agar maktabdagi “Texnologiya” fani dasturiga qaraydigan bo‘lsak tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid mavzular talaygina, lekin maktab o‘qituvchisi ya’niki biz tayyorlayotgan bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari tomonidan dasturda berilgandek to‘liq o‘tishmaydi, bunga ikkita sabab bor:

1) Dasturda berilgan tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid mavzulardagi loyihalash hisob- kitob jarayonlari murakkabligidan o‘quvchiga yetkazib bera olish qiyin.

2) Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining “Gazlama materiallariga ishlov berish va buyum tayyorlash texnologiyalari” va “Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash (tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish)” fanidagi tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonlari murakkab tashkil etilganligi sababli mavzularni to‘liq o‘zlashtira olishmaydi.

“Easy design” metodini yoritishdan avval, loyihalash usullarini ko‘rib chiqsak.

Kiyim bo‘laklarini hisoblash va chizma tayyorlashning quyidagi usullari mavjud:

1. Mulyaj usuli.
2. Hisoblab loyihalash usuli.
3. O‘lchab-hisoblab loyihalash usuli.
4. Yagona loyihalash usuli.

Mulyaj usulining mohiyati shundan iboratki, maneken yoki kishi gavdasiga maket material (gazlama, yengil-yumshoq kog‘oz) modelning formasiga moslab, to‘g‘nag‘ichlar bilan qadab chiqiladi. To‘g‘nag‘ichlar odam gavdasining konstruktiv chiziqlari bo‘ylab (bo‘yin, yelka, yeng o‘yindisi, yon bel, o‘rta chiziqlar) to‘g‘nag‘ichlanadi. So‘ngra rangli ipda to‘g‘nalgan joylardan tikib chiqiladi. Shunda ko‘krak do‘ngligini aniqlovchi ko‘krak vitochkasi ikki tomonlama tikiladi. So‘ngra to‘g‘nag‘ichlar bo‘shatilib, gazlama yoki kog‘ozni stol ustiga yoyiladi. Bu hosil bo‘lgan chizma gavdaning asos chizmasi hisoblanadi. Bu usuldan murakkab bichimli kiyimlarni loyihalashda va ko‘pgina saxna kiyimlarini, tarixiy kiyimlarni loyihalashda qo‘llaniladi.

Hisoblab loyihalash usuli. XIX asrning boshlarida Fransiya, Rossiya va boshqa mamlakatlarda loyihalashning hisoblash (bichish tizimi) usuli tarqala boshlandi. Bu usulni ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan bichuvchilar ixtiro qilganlar. Ular gavdadan ayrim o‘lchovlarni olib, sodda hisoblash formulalari yordamida buyum detallari chizmasini gazlamaning o‘zida bajaradilar, ya’ni alohida andoza tayyorlab o‘tirmaydilar. Bu usul yakka tartibda buyum ishlab chiqarishda qo‘llanilgan.

O‘lchab- hisoblab loyihalash usuli. Kiyimni yakka buyurtma yo‘li bilan tikishda o‘lchab-hisoblab loyihalash usuli juda mos keladi, chunki bu usulda gavdani aniq o‘lchangani tufayli gavdaning o‘ziga xos hususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda o‘lchab-hisoblab loyihalash usullari bo‘yicha kiyim detallari chizmasini tuzish keng tarqalgandir. Bu usulda gavdadan kerakli o‘lchovlar olinadi,

hisoblash jadvali tuziladi. Jadval asosida buyumning asos chizmasi chiziladi. Bu usuldan maktablarda, o‘quv muassasalarida, to‘garaklarda qo‘llaniladi. Bu usulning bir necha o‘nlab turlari mavjud. Chizma chizishni, andoza tayyorlashni o‘rganayotgan kishilar uchun bu usul qulay hisoblanadi. Deyarli barcha loyihalashlar shu usulda bajariladi.

Yagona loyihalash usuli. Mamlakatimiz va o‘zaro iqtisodiy yordam kengashi (UIYoK) a’zolari bo‘lgan mamlakatlar tikuvchilik sanoatlarida kiyimni loyihalash usullarini takomillashtirish ustida ishlab, loyihalashning yagona usulini ishlab chiqqanlar. Bu usul boshqa usullardan universalligi bilan ham farq qiladi, chunki har qanday bichimdagi va ko‘rinishdagi kiyimlar loyihasini tuzishda baza loyihalar asos qilib olinadi. Bu usulni yaratish jarayonida aholining antropometrik o‘lchovlari asosida standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartlar ayollar, erkaklar va bolalar assortimentlari uchun alohida-alohida ishlab chiqilgan. Bu usuldan tikuvchilik korxonalari foydalanadi. Korxonadagi loyihachilar standartlarda berilgan loyhalash usuli o‘lchovlardan foydalanib, buyum assortimentiga qarab, buyumning asos chizmasini loyihalaydilar, modellashtirib, buyum andozasini hosil qiladilar.

Biz bularga qo‘shimcha qilib, muhandislik usuli – kiyimni uch o‘lchovli dizaynida muhandislik texnikasi qo‘llaniladi, bu sizga monitor ekranida yuzalarni ochish va kiyim qismlarining tayyor chizmalarini olish imkonini beradi. Bu usul asosan ilmiy tadqiqotlar, mavjud usullarning muammolarini hal qilish va ommaviy ishlab chiqariladigan mahsulotlar dizaynini ishlab chiqish uchun qo‘llaniladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ommalashgan barcha loyihalash metodlari O‘lchab- hisoblab loyihalash usuli qilinadi. Bularga sNIIShP, EMKO, “Myuller va o‘g‘illari” va h.k.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tikuvchilik buyumlarini loyihalashning “Boshqacha qarash” metodi muallifi Ye.V. Ovchinnikova shunday deydi: “Men ancha yillar oldin, maktabda ishlab yurgan vaqtlarim kiyimni loyihalash usullarining qat’iy ko‘rsatmalariga asablarim dosh bera olmasdi, bu loyihalash usullarini

o‘quvchilarim tushunishi ham juda qiyin bo‘lardi. Men nima uchun bu shunday va boshqacha emasligini tushuntirishni muvaffaqiyatsiz izladim, masalan, nega 2sm emas, 3sm emas balki bissektrisa bo‘ylab 2,5sm kirishim kerak? Nihoyat, men hammasiga qo‘l siltadim. Har qanday texnik dizayn, o‘lchovlardan boshlanadi, ular uchun ko‘plab vositalar mavjud. Tikuvchining bitta asbobi bor- santimetr lenta! Men “Boshqacha qarash” metodim orqali murakkab nazariy hisob- kitoblarsiz, har- xil geometrik figuralardan foydalanib o‘z loyihamni yaratdim. Masalan: mashinani boshqarish uchun mexanika fanlar nazariyasini, Windows XPdan foydalanish uchun operatsion tizimlar nazariyasini bilish shart emas”.

Oksana Tsareva o‘z dissertatsiyasida shunday degan: “Tikuvchilik buyumlarini loyihalash bo‘yicha maxsus fanlarning mavjudligi bu yaxshi, lekin endi o‘rganadigan o‘quvchi uchun qulay va sodda usul kerak. Mavjud hisob- kitob va grafik usullar – o‘lchov olish va ularni formulalarga almashtirish va buning asosida chizma qurish. Bunga misol tariqasida bir nechta mashhur loyihalash usullari “YeMKO”, ” Myuller va Son” va shunga o‘xshash juda ko‘p. Men shunaqa beshta eng mashhur loyihalash usulini tanlab oldim va bir xil modelni, bir kishiga besh xil usulda loyihaladim, natijada, kiyimlarning tayyor modellarini qanday usulda loyihalanganligini farqlab bo‘lmadi, moslik hamma usulda amalda bir xil chiqdi. Shuning uchun asosiysi loyihani qanday usul bilan qurish emas, muhimi o‘lchov olishni to‘g‘ri bajarish, raqamni to‘g‘ri qo‘yish va keltirilgan raqamlar o‘rnini chizmalarda to‘g‘ri birlashtira olish”.

Muhokama. Shuni inobatga olishimiz kerakki, biz oliy ta’lim Pedagogika institutlari “Texnologik ta’lim” yo‘nalishida yengil sanoat korxonalari uchun dizayner- konstruktorlar tayyorlamaymiz balki, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlaymiz, shuning uchun biz talabalarga ommaviy tarzda tikiladigan kiyimlarni loyihalashni emas balki, induvidual tikiladigan kiyimlarni loyihalashni o‘rgatishimiz kerak. Buning uchun biz, tikuvchilik buyumlarini loyihalashni ikki tomon ham tushunadigan sodda va samarali usuli ishlab chiqdik.

Jumladan, yurtimizda ham tikuvchilik buyumlarini loyihalash bo‘yicha tadqiqotchilarimiz tomonidan izlanishlar olib borilgan. Shulardan, Q.M.Abdullaevaning kiyimlarni loyihalash uslubi ham, o‘lchab- hisoblab loyihalash usulida bajarilgan, oliy ta’lim va maktabdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan. Boshqa loyihalash usullaridan farqi shundaki, formulali hisob-kitoblari tushunarli va chizmalar ketma-ketligi aniq tushuntirilgan. Bu loyihalash usulini agar talaba qunt bilan o‘rgansa o‘zlashtira oladi, lekin maktab o‘quvchisiga tushuntirib bera olmaydi. Q.M.Abdullaeva va bir nechta tadqiqotchilarning kiyimlarni loyihalash usullaridan foydalangan holda “Easy design” metodini ishlab chiqdik, bu metod ham talaba uchun, ham maktab o‘quvchisi uchun sodda va oddiy tushuntirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yuqorida ko‘rib chiqganimiz ikki xil loyihalash hisob-kitob usuli bir-biridan hisoblash jarayoni bilan farq qiladi, lekin tayyor loyihalar bir-biridan deyarli farq qilmaydi, bu loyiha asosida tikilgan kiyimlarni ham bir-biridan ajratish qiyin. Shunday ekan, tikuvchilik buyumlarini qanday loyihalashdan qat’iy nazar bir xil natijaga erishilar ekan, biz talaba va o‘quvchi uchun tez va samarali, sodda va tushunarli usulini tanlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisi qachonki o‘zi fanni yaxshi tushunsagina o‘quvchilariga yaxshi tushuntirib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdukarimxodjiyeva.M.B. Fanlararo integratsiyaning uslubiy va didaktik asoslari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi. OAK: 01-08/1819/6.12.01.2026. ISSN: 2181-1695

2. Umarova.N.A.“Integratsiyalashgan Ta’lim Texnologiyalari” Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 3, June, 2023 ISSN (E): 2810-6377 Website: https://academiaone.org/index.php/43.

3. Otajonov.O.A., “Oliy ta’lim jarayonida integrativ yondashuv”. Yangi o‘zbekiston pedagoglari axborotnomasi SJIF: 5.141. 18- June 2024 yil

4. Nurmatova.Sh.I.,Integratsiyalashgan yondashuv asosida o'qish savodxonligi darslarini tashkil etish metodikasi. Universal journal of social sciences, philosophy and culture. ISSN 2992 – 8834 https://science-research.org.uz/index.php/UJ SSPC

5. Sodiqova.A.H., Integratsiya-ta'lim jarayonini qulaylashtirishning muhim prinsipi. Qo'qon universiteti xabarnomasi. OAK: OAK: 01-08/1819/6.12.01.2026. ISSN: 2181-1695, https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i05.087